

BUDDAVIYLIK TA'LIMOTI KOSMOLOGIYASI VA AN'ANAVIY XITOIY KOSMOLOGIYASINING O'ZARO QIYOSIY TAHLILI

Mamatqulova Nilufar Xusanovna, Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Gmail: nilufarxusanovna@gmail.com (90)418-30-06

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Buddaviylik ta'limoti kosmologiyasi va Xitoy an'anaviy kosmologiyasining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Qiyosiy tahlil buddaviylik ta'limoti hamda Xitoy tafakkuridagi ontologik qarashlar asosida amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: *Buddaviylik kosmologiyasi, karma, sansara, Xitoy kosmologiyasi, naturalizm.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE COSMOLOGY OF THE BUDDHIST TEACHING AND THE TRADITIONAL CHINESE COSMOLOGY

Mamatkulova Nilufar Husanovna, Independent researcher of Tashkent State
University of Oriental Studies

Gmail: nilufarxusanovna@gmail.com

ABSTRACT

In this article, a comparative analysis of Buddhist cosmology and traditional Chinese cosmology is carried out. The comparative analysis was carried out on the basis of Buddhist teachings and ontological views of Chinese thought.

Key words: *Buddhist cosmology, karma, samsara, Chinese cosmology, naturalism.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОСМОЛОГИИ БУДДИЙСКОГО УЧЕНИЯ И ТРАДИЦИОННОЙ КИТАЙСКОЙ КОСМОЛОГИИ

Маматкулова Нилуфар Хусановна

Независимый научный сотрудник Ташкентского государственного
университета востоковедения

Gmail: nilufarxusanovna@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительный анализ буддийской космологии и традиционной китайской космологии. Сравнительный анализ проводился на основе буддийского учения и онтологических взглядов китайской мысли.

Ключевые слова: *буддийская космология, карма, сансара, китайская космология, натурализм.*

KIRISH.

Buddaviylik kosmologiyasida fazo muqaddaslashtirilmagan. Buddaviylik ta'limoti uchlik dunyo sansaraning asosiy xususiyatlari azob-uqubat va nomuntazamlilik ekanligini alohida ta'kidlaydi. Buddaviylikda dunyoning sababi–tirik mavjudotlarning harakati (karma) vedalar ta'limotining ta'sirida shakllangan. Buddaviylikning maqsadi – sansaradan ozod bo'lish va nirvanaga erishish, uch dunyoning qamrovidan qutulishdan iborat. Buddaviylik ta'limotida ontologik pessimizm va ozodlikka intilayotgan inson uchun namuna bo'lgan rohib timsoli markaziy o'rinda turadi.

Xitoy falsafiy ta'limotlarida fazoning muqaddaslashtirilishi hamda his qilinadigan dunyoning yagona voqelik ekanligi alohida ahamiyatga ega. Xitoy falsafiy tafakurida karma va sansaraga o'xshash tushunchalar mavjud emas. Xitoy tafakkurida dunyoni ikkilikka bo'linishi, potensial mohiyat, shakllanmagan dunyo (u) va real borliq (yu) masalalari mavjud. Xitoy tafakkuri diniy ideallarni hissiy fazo doirasi amaliyotga tadbiq qiladi. Xitoy dunyoqarashida ontologik optimizm, ajdodlar ruhiga sig'inish, oilaviy qadriyatlar va farzand ulg'aytirishni hurmat qilish masalalari markaziy o'ringa ega.[1]

Buddaviylik kosmologiyasidagi psixologizm, uch dunyo va ularning joylashuvi – tirik mavjudotlar ongining holati bilan izohlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Xitoy kosmologiyasi naturalizmida dunyo va uning turli darajalari – yagona kvazimoddiy energetik substansiya – pnevmalar (si) ko'rinishda aks etadi. Xitoy mifologiyasidagi ilohlar va boqiylar dunyolari buddaviylikdagi shakllar va noshakllar dunyolariga muvofiq keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Xitoy ta'limotlarida vaqtning davriyligi mavjud, lekin fazoviy davriylik yo'q. Xitoy ta'limotlarida vaqt davriylikka ega, lekin chiziqli unsurlarga ega. Xitoy ta'limotlarida makonning gorizontal bo'linishi ma'qullanadi.

Buddaviylikda vaqtning davriyligi, ya'ni, dunyo davriyligining mavjud. Buddaviylikda vaqtning davriyligi makonning vertikallik bo'yicha bo'linishiga asoslanadi.

Buddaviylikda sotsiogenezis (jamiyatning kelib chiqishi) doktrinasida davlatlar kelib chiqishining "Ijtimoiy shartnoma" nazariyasi izohlanadi. Buddaviylikda hukmdor hokimiyatini muqaddaslashtirishning nisbatan zaifligini hamda tamadduniy universalizmni kuzatish mumkin.

Xitoy ta'limotlarida sotsiogenezis doktrinasida Ijtimoiy shartnoma unsurlarining mavjudligi faqat moistlarda kuzatiladi. Xitoy ta'limotlarida hukmdor hokimiyatining va davlat muassasalarining yuqori darajada muqaddaslashtirilishi mavjud. Xitoy ta'limotlari tamadduniy xitoymarkazchilikka asoslanadi.

Buddaviylik.	Xitoy ta'limotlari.
Fazoning muqaddaslashtirilmasligi.	Fazoning muqaddaslashtirilishi.
Uchlik dunyo sansaraning asosiy xususiyatlari azob-uqubat va nomuntazamlilik ekanligi.	His qilinadigan dunyoning yagona voqelik ekanligi. Karma va sansaraga o'xshash tushunchalarning mavjud emasligi.
Dunyoning sababi – tirik mavjudotlarning harakati (karma).	Dunyoni ikkilikka bo'linishi, potensial mohiyat, shakllanmagan dunyo (u) va real borliq (yu).
Buddaviylikning maqsadi – sansaradan ozod bo'lish va nirvanaga erishish, uch dunyoning qamrovidan qutulish.	Diniy ideallarni hissiy fazo doirasi amaliyotga tadbiq qilish.
Ontologik pessmizm va ozodlikka intilayotgan inson uchun namuna bo'lgan rohib timsoli.	Ontologik optimizm, ajdodlar ruhiga sig'inish, oilaviy qadriyatlar va farzand ulg'aytirishni hurmat qilish.
Buddaviylik kosmologiyasidagi psixologizm, uch dunyo va ularning joylashuvi – tirik mavjudotlar ongining holati.	Xitoy kosmologiyasi naturalizmi. Dunyo va uning turli darajalari – yagona kvazimoddiy energetik substansiya – pnevmalar (si). Iloklar va boqiylar dunyolari buddaviylikdagi shakllar va noshakllar dunyolariga muvofiq keladi.
Buddaviylikda vaqtning davriyligi. Dunyo davriyligining mavjudligi. Vaqtning davriyligi. Makonning vertikallik bo'yicha bo'linishi.	Xitoy ta'limotlarida vaqtning davriyligi. Vaqtli davriylikning mavjudligi, lekin fazoviy davriylikning yo'qligi. Vaqt davriylikka ega, lekin chiziqli unsurlarga egaligi. Makonning gorizonta bo'linishi ma'qullanadi.
Buddaviylikda sotsiogenezis (jamiyatning kelib chiqishi) doktrinas. Davlatlar kelib chiqishining "Ijtimoiy shartnoma" nazariyasi. Hukmdor hokimiyatini muqaddaslashtirishning nisbatan zaifligi. Tamadduniy universalizm.	Xitoy ta'limotlarida sotsiogenezis doktrinas. Ijtimoiy shartnoma unsurlarining mavjudligi (moistlarda). Hukmdor hokimiyatining va davlat muassasalarining yuqori darajada muqaddaslashtirilishi. Tamadduniy xitoymarkazchilik.

Shu yerda yana bir masalani muhokama qilish kerak – an’anaviy Xitoy madaniyati doirasida sansara g’oyalarining mavjud bo’lishiga imkoniyat bo’lgan. Bir tomondan sansara buddaviylikning muhim aqidasi hisoblanadi. Boshqa tomondan esa xitoy madaniyatida fazoga bo’lgan tavsif (muqaddaslik, tartiblilik, uyg’unlik, hissiyotning real qoqelik bilan uyg’unligi) sansaraning tavsifiga (azob-uqubat, nomuntazamlilik, mohiyatsizlik, ifloslanganlik, bo’shliq) to’g’ridan-to’g’ri qarama-qarshidir. Lekin Xitoyda qaror topgan buddaviylik an’analari sansara doktrinasining qabul qilinganligidan dalolat beradi.[2]

Sansara g’oyasining Xitoy madaniyati tomonidan qabul qilinganligida ozodlikka erishish (nirvana)ning ustun holati emas, balki o’zgarishlar va transformatsiyalarning (i) o’ziga xos xitoycha qarashning variantini bosh omil sifatida qabul qilish mumkin. Xitoyliklar uchun yangi bo’lgan qayta tug’ilish va o’lish g’oyalaridagi ijobiylik va umidbaxshlik ularda ijobiy munosabat shakllantirdi.[3]

An’anaviy Xitoy madaniyatida tananing o’limidan so’ng ruhiy ibtidoning saqlanishi haqidagi mukammal qarashlar yo’q edi (daos doktrinasida muqaddas zotlar – syanlarning jismoniy boqiyliqi haqida g’oyalar mavjud edi xolos).[4] Xitoy madaniyati karma va qayta tug’ilishlar haqidagi ta’limotni o’ziga xos yangilik sifatida qabul qilishdi, bu yangilik yakka mavjudlikning turli shakllarda, xususan, jismoniy mavjudlikda abadiy davom etishiga umid uyg’otdi va bu holat daosizmdagi qarashlar bilan to’liq ravishda uyg’unlik kasb etgan edi. Bunday talqin (buddaviylik doktrinasining ilk mohiyatiga to’g’ridan-to’g’ri qarama-qarshi) V-VI asrlarda “ruhiy ibtidoning yo’q bo’lmasligi” (shen bu me)[5] haqidagi bahslarda aniq namoyon bo’ldi. Bu bahslarda dunyoviy buddaviy intellektuallari ruh tushunchasini (shen) hayotdan hayotga o’tadigan doimiy ruhiy substansiya (chan) sifatida yoqlab chiqdilar, bu holat xitoycha naturalizm (buddaviylik ta’sirida ruhiylashtirilgan variantida) g’oyalariga to’liq muvofiq keladi. Lekin bu g’oya buddaviylik ta’limotidagi fundamental doktrina “ne-ya”ga (anatmavada, u vo szyan) muvofiq kelmas edi. Ne-ya doktrinasida tirik mavjudot besh guruh-skandhlarga guruhlashtirilgan, lahzali, lekin sababiy bog’langan elementar psixofizik holatlarning (dxarma) kontinuumi sifatida tavsiflanadi.

Buddaviylik va xitoycha ta’limotlarning muhim xususiyatlari bilan bir qatorda aniq umumiylik ham mavjud, busiz ularning o’zaro ta’siri haqida gap bo’lishi mumkin emas. Bu umumiylikning asosini avvalo noteist (yagona ilohiylik bo’lmagan) ontologiya va Mutloqlikning apofatik tavsifi tashkil etadi.

Xitoy dunyoqarashiga teistik yondashuv shunchalik begonaki, XVII-XVIII asrlarda Xitoyga kelgan missioner-iezuitlar xudo so’zini xitoy tiliga tarjima qilish chog’ida jiddiy muammolarga duch kelishgan, qiziqarli holat shundaki, yakunda

ular lotincha “deus” soʻzini xitoycha transkripsiyasini (teusi) isteʼmolga kiritishgan. Xitoy naturalizmi dunyoni “ex nihilo” (hech narsadan) yaratuvchi yaratuvchi va uni oʻz idroki bilan boshqaruvchi transsendent Xudo yaratuvchi haqidagi gʻoyalar bilan muvofiq kela olmasdi. Buddaviylik ham Xudo yaratuvchining mavjudligini inkor qiluvchi noteistik doktrina hisoblanadi.[6]

Ham buddaviylilar, ham xitoylik mutafakkirlar oʻz taʼlimotlarining oliy tamoyillarini inkor atamalarda tavsiflaganlar.

Nirvana, bodxi (uygʻonish, nurlanish), tatxama (haqiqiy voqelik borligicha mavjud)larni tavsiflab boʻlmaydi, chunki ular kundalik tajribaga koʻra transsendentdir, ularni til bilan tavsiflab boʻlmaydi.[7] Bu holatni daosizm vakillari ham yoqlab chiqadilar, ularda haqiqiy Dao (yoʻl)ni soʻz bilan ifodalab boʻlmasligini oʻzida ifoda etadigan qoida bor va hatto soʻzda Daoni shartli ravishda istifoda etadilar. Konfutsiychilik tarafdorlari ushbu nuqtayi nazarni har doim ham yoqlamaganlar (metafizik narsa-buyumlar haqida mulohaza yuritishdan koʻpincha oʻzlarini tiyishgan, ular mavjud boʻlsalarda, shu yue – Ustoz, yaʼni Konfutsiy bu haqida hech narsa demagan), bu gʻoya anʼanaviy xitoy madaniyatiga yaxshi maʼlum boʻlgan va buddaviylik yondashuvlari bilan toʻla hamohang boʻlgan.[8]

XULOSALAR.

Xitoyda yozilgan buddaviylik asarlarida azoblanish barcha mavjudotning fundamental xususiyati ekanligi haqidagi taʼlimot rivojlantirilmadi. Xitoy buddaviyi nimadandir ozod boʻlishga emas, balki nima uchun ozod boʻlishga intiladi. Bu holatda xitoylik buddaviylarining xinayana Xitoyga kirgan boʻlsa ham, xinayana va uning ideali nirvanani emas, balki maxayana va uning ideali bodxini tanlaganlari, afzal koʻrganlarining sababini tushunsa boʻladi. Xitoyda tarqalish konsepsiyasi (Tyantay, Xuayan, Chan maktablari) oʻzida universum bilan birlashish, individual ongning yagona va mutloq Aql yoki umumiy borliq bilan aynanlashuvi kabi panteistik jihatlarni ifoda etadi. Ular aksariyat holatlarda xitoyning anʼanaviy naturalistik xolizmiga tayanadilar. Xolizm dunyoning yagona organizm ekanligini va oliyjanob donishmand u bilan yagona jismoniy tanaga birlashuvini (i ti) ilgari suradi. Buddaviylikda oliyjanob shaxs (arya pudgala) dunyo bilan birlashuvini ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, xitoy dinlari (avvalo daosizm) va buddaviylik noaqidaviy va inklyuzivistik, yaʼni oʻzaro muloqotga doim ochiq boʻlgan va oʻzlarining mutloq eʼtiqodiy tizimini mustasno qilmaydigan taʼlimotlar boʻlib, bu holatlar keyinchalik “uch taʼlimot” (san szyao) nomli Xitoy diniy sinrketizmining shakllanishida muhim omil boʻlib xizmat qildi.

REFERENCES.

1. Jinhui Wu. The Transformation of Buddhist Cosmology In Early Modern China: A Study Of The Fajie Anli Tu. In Partial Fulfillment of the Requirements for the degree of Doctor of Philosophy. The University of Arizona, 2021. – P.35.
2. Чжунго фоцзяо (Хитой Буддавийлиги). Т. 1. Пекин, 1980. – P.36.
3. Jinhui Wu. The Transformation of Buddhist Cosmology In Early Modern China: A Study Of The Fajie Anli Tu. In Partial Fulfillment of the Requirements for the degree of Doctor of Philosophy. The University of Arizona, 2021. – P.38
4. Jinhui Wu. The Transformation of Buddhist Cosmology In Early Modern China: A Study Of The Fajie Anli Tu. In Partial Fulfillment of the Requirements for the degree of Doctor of Philosophy. The University of Arizona, 2021. – P.40.
5. Фон Литянь. Фоцзяо чжэсюэ (Буддавийлик фалсафаси). Пекин, 1987.– P.25.
6. Фон Литянь. Фоцзяо чжэсюэ (Буддавийлик фалсафаси). Пекин, 1987.– P.27.
7. Хуан Чаньхуа. Фоцзяо гэцзун да и (Хитой Буддавийлиги мактаблари таълимотларининг моҳияти). Тайбэй, 1973. – P.68.
8. Хуан Чаньхуа. Фоцзяо гэцзун да и (Хитой Буддавийлиги мактаблари таълимотларининг моҳияти). Тайбэй, 1973. – P.72.